



The evolution of English language teaching in secondary schools

Barno RAKHMATULLAEVA¹

Navoi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

English language,
foreign language education,
academic speech,
cognitive development,
bilingualism,
international
communication,
methodology,
communicative approach,
blended learning,
educational innovations.

ABSTRACT

This article highlights the necessity of teaching English in general education schools, addressing its academic, cognitive, socio-economic, and cultural aspects. The experience of teaching English from childhood, its impact on education, and its significance as an international phenomenon are also discussed. The article explores the scientific and practical importance of the English language, the cognitive benefits of learning it, its role in the labor market, and its contribution to the development of intercultural communication. Additionally, the historical development of English language teaching, various methodologies, and modern approaches are analyzed. The influence of digital technologies and the internet on English language education is also examined as a crucial aspect.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp137-140>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz tilini o'rta maktablarda o'qitish evolyutsiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ingliz tili,
chet tili ta'limi,
akademik nutq,
kognitiv rivojlanish,
bilingualizm,
xalqaro muloqot,
metodika,
kommunikativ yondashuv,
aralash ta'lim, t
a'lim innovatsiyalari.

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishning zarurati, uning akademik, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ingliz tilini bolalikdan o'qitish tajribasi, uning ta'limga ta'siri va xalqaro fenomen sifatida ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada ingliz tilining ilmiy va amaliy ahamiyati, uni o'rganishning kognitiv ustunliklari, mehnat bozoridagi o'rni va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi roli haqida so'z boradi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitishning tarixiy rivojlanishi, turli metodlar va zamonaviy yondashuvlar ham tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar va internetning ingliz tili ta'limiga ta'siri ham muhim jihat sifatida ko'rib chiqiladi.

¹ PhD student, Navoi State University. E-mail: barnoshka4675@gmail.com

Эволюция преподавания английского языка в средних школах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

английский язык,
обучение иностранным
языкам,
академическая речь,
когнитивное развитие,
билингвизм,
международная
коммуникация,
методика,
коммуникативный подход,
смешанное обучение,
образовательные
инновации.

В данной статье рассматривается необходимость преподавания английского языка в общеобразовательных школах, а также его академические, когнитивные, социально-экономические и культурные аспекты. Особое внимание уделяется практике раннего изучения английского языка, его влиянию на образовательный процесс и значению как глобального феномена. Освещается научная и практическая ценность английского языка, его когнитивные преимущества, роль на рынке труда и вклад в развитие межкультурной коммуникации. Также анализируется историческая эволюция преподавания английского языка, основные методики и современные педагогические подходы. Отдельный акцент сделан на влиянии цифровых технологий и интернета на процессы обучения.

KIRISH

Chet tili ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish va o'rgatish yoshini qisqarqirish tajribasi ommalashib, xalqaro fenomen tusini oldi. Bunga "The younger the better / early is better" mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi [1-4]. Maktabda ingliz tilini o'qitish quyidagi sabablarga asoslangan:

- Ingliz tili butun dunyo bo'ylab akademik nutq va ilmiy muloqotning asosiy tili bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, ingliz tilimi bilish o'quvchilarni keng ko'lamdagi akademik adabiyotlar, jumladan, darsliklar, ilmiy maqolalar va raqamli manbalar bilan shug'ullanish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Bu imkoniyat, ayniqsa, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) kabi sohalarda yuqori ahamiyatga ega, vaholanki, eng ilg'or tadqiqot va o'quv materiallarining aksariyati ingliz tilida nashr etiladi. Bundan tashqari, ingliz tilini bilish o'quvchilarga anglofon mamlakatlarida ta'lim olish imkoniyatlarini izlash va xalqaro akademik almashinuv dasturlarida qatnashish imkonini beradi va ularning intellectual dunyoqarashlarini kengaytiradi [5].

- Chet tili, ayniqsa, ingliz tilini o'rganish kognitiv funksiyalarni, ijro etuvchi nazorat, xotirani yaxshilash, muammolarni hal qilish qobiliyatlari kabilarni takomillashtirish uchun empirik tarzda namoyon bo'lib kelmoqda. Kognitiv rivojlanishning hal qiluvchi bosqichida bo'lgan o'rta maktab o'quvchilari yangi tilni o'rganish uchun talab etiladigan aqliy intizomga egaliklari tufayli muvaffaqiyatga erishishadi. Bu jarayon metalingvistik ongni rivojlantiradi, o'quvchilarga tilning strukturaviy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga hamda o'rganilayotgan til va ona tillarida savodxonlik oshirishga imkon beradi. Bilingualizm tufayli yuzaga keladigan moslashuvchanlik fanlararo akademik ko'rsatkichlarning yaxshilanganligi bilan bog'liq, chunki o'quvchilar ikki tillilikda yuqori darajadagi tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar [6].

- Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy globallashib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ingliz tili xalqaro biznes, diplomatiya va kommunikatsiyaning "lingua franca" si sifatida qaraladi. Ingliz tilini bilish mehnat bozorida ham o'z qimmatli qiymatiga ega aktiv hisoblanadi, sababi u bandlik bilan ta'minlaydi hamda transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar va davlat idoralarida ishlash umkoniyatlarini ochadi. Shunday qilib, o'rta maktablarda ingliz tilini o'rgatish o'quvchilarning kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy harakatchanligiga strategik sarmoya bo'lib xizmat qiladi, ularga turli xil professional muhitlarda yetakchilik qilish uchun zarur bo'lgan lingvistik kapital bilan ta'minlaydi [7].

- Ingliz tili madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi, bu orqali o'quvchilar ko'plab adabiy asarlar, ommaviy axborot vositalari mahsullari bilan tanishadilar, shu bilan ularda millatlararo bag'rikenglik hamda hamdardlik tushunchalari shakllanadi [8].

- Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'rgatish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha o'quvchilarga global tildan foydalanish imkonini bergan holda ta'limda tenglik hamda ijtimoiy inklyuziyani qo'llab quvvatlaydi. Ingliz tili davlat tili bo'lmagan ko'plab mamlakatlarda oliy ta'limga kirish, kasbiy imkoniyatlar va ijtimoiy harakatchanlikni aniqlay oladigan darvozabon til hisoblanadi [9].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tili ta'limining o'quv dasturiga kiritilishi akademik, kognitiv, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillarning uyg'unligi bilan izohlanadi. Ingliz tilini bilish nafaqat o'quvchilarning ilmiy yutuqlari va kognitiv qobiliyatlarini oshiradi, balki ularni tobora globallashib borayotgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, u yanada inklyuziv va o'zaro bog'langan global jamiyatni qo'llab quvvatlab, madaniy kompetensiya va ta'limda tenglikni rag'batlantiradi. Ingliz tili ta'limi o'rta maktab o'quv dasturining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralishi kerak, bu o'quvchilarni XXI asrning muammolari va imkoniyatlariga hozirjavob bo'lishi uchun zarurdir [10].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilini o'rta maktablarda o'qitish ham o'z tarixiga ega. Ushbu tarixni bir necha davrlarga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'ziga xos alohida yondashuvlar va maqsadlar bilan tavsiflanadi.

Dastlab o'rta maktablarda Angliyaning o'zida ham ingliz tili rasmiy ravishda o'qitilmagan. Uyg'onish davriga kelib, gimnaziyalarning tashkil etilishi bilan ingliz tili o'qitila boshlangan. Aynan shu davrda ingliz tili grammatikasi va adabiyoti o'quv dasturlariga kiritilgan. XIX asrda grammatik-tarjima usuli rasmiylashtirilib, pedagogik yondashuv sifatida grammatik qoidalarni o'rgatish hamda o'rganilayotgan til va ona tili o'rtasidagi matnlarni tarjima qilish tanlandi. Asosiy e'tibor o'qish va yozishga qaratilgan holda, og'zaki nutq yoki kommunikativ kompetensiyaga juda kam e'tibor qaratilgan. XX asr boshlarida til pedagogikasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berib, to'g'ridan-to'g'ri usul (Direct Method) dan foydalanildi. Bunda o'quvchilar ona tilidan foydalanishni to'xtatib, o'rganilayotgan tildagi lug'at va gap tuzilishiga e'tibor qaratishdi. XX asrning o'rtalarida, xususan, Ikkinchi Jahon urushi davrida AQSh kontekstida audio-lingual usul urfga kirdi. Bu metodda o'qish va yozishdan ko'ra tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari birinchi o'ringa qo'yildi. Ushbu yondashuv takrorlash va til o'rganishning bixevioristik nazariyasiga asoslangan edi. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshlarida tillarni kommunikativ o'qitish (CLT) keng tarqalgan. Ushbu yondashuv samarali va to'g'ri

muloqot qila olish qobiliyatini birinchi o'ringa qo'yadi. CLT o'zaro muloqotni til o'rganishning ham asosiy vositasi, ham yakuniy maqsadi sifatida ta'kidlaydi. Unda asl (authentic) materiallardan va real hayotdagi muloqot ssenariylaridan foydalanish ustunlik qiladi.

So'ngi yillarda raqamli texnologiyalar va internetning yuksalishi umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishni tubda o'zgartirdi. An'anaviy ta'limni onlayn ta'lim bilan birlashtirgan aralash ta'lim tobora keng tarqalmoqda. Ushbu yondashuv moslashuvchanlik hamda turli xil manbalardan foydalanish imkonini beradi.

XULOSA

Ingliz tili ta'limi nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlari va kognitiv qobiliyatlarini oshiradi, balki ularni globallashtirgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan ta'minlaydi. Ushbu tilni bilish xalqaro ilmiy hamjamiyat, biznes va diplomatiyada katta ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'qitishning tarixiy rivojlanishi turli metodlarning qo'llanilganligini ko'rsatadi, zamonaviy ta'lim esa kommunikativ yondashuv va raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan. Shu sababli, ingliz tilini o'qitish o'quv dasturlarining ajralmas qismi sifatida qaralishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rakhmatullaeva, B. (2023). Digital technologies in English lessons as a means of implementing metacognitive approach. *Академические исследования в современной науке*, 2(26), 124-128.
2. Narzikulova, D., & Rakhmatullayeva, B. (2016). Usage of modern pedagogical technologies according to the types of learning. *International Scientific Review*, (1), 86-89.
3. Barno, R., Nafisa, K., Kibriyo, B., & Khurshid, K. (2021). Mobile learning and learning through animated movies: challenges in young english learners. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(2), 991-995.
4. Selwyn, N. (2016). *Education and technology: Key issues and debates*. Bloomsbury Academic.
5. Sung, Y.-T., Chang, K.-E., & Liu, T.-C. (2016). The effects of integrating mobile devices with teaching and learning on students' learning performance: A meta-analysis and research synthesis. *Computers & Education*, 94, 252-275. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2015.11.008>
6. OECD. (2015). *Students, computers and learning: Making the connection*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264239555-en>
7. Warschauer, M. (2011). *Learning in the cloud: How (and why) to transform schools with digital media*. Teachers College Press.
8. Zhao, Y., Pugh, K., Sheldon, S., & Byers, J. L. (2002). Conditions for classroom technology innovations. *Teachers College Record*, 104(3), 482-515. <https://doi.org/10.1111/1467-9620.00170>
9. Kim, P., Hagashi, T., Carillo, L., Gonzales, I., Makany, T., Lee, B., & Gàrate, A. (2011). Socioeconomic strata, mobile technology, and education: A comparative analysis. *Educational Technology Research and Development*, 59(4), 465-486. <https://doi.org/10.1007/s11423-011-9204-5>
10. Kimmons, R., & Hall, C. (2016). Emerging technology integration models and frameworks: Seeking a common ground. *TechTrends*, 60(3), 309-315. <https://doi.org/10.1007/s11528-016-0053-0>